

## KINO SANATIDA REJISSURA

Sultonov Dostonbek

O‘zDSMI FMF “Dramatik teatr rejissorligi” 4-bosqich talabasi

[sultonovdoston07@gmail.com](mailto:sultonovdoston07@gmail.com)

**Annotatsiya:** bu maqolada rejissura san’atida o‘zing o‘chmas izini qoldirib har qandayin rejissura ixlosmandlari uchun o‘rnak bo‘la oladiga va teatr rejissurasi asosida kino olamiga ham o‘zining ilk hissasini qoshgan tarixiy saxslar va kino san’ati ilk namoyondalari qatorida bo‘lgan shaxslar haqida mazmunli ma’luotlar keltrilgan.

**Kalit so‘zlar:** rejissura, senariy, film, kino, tomoshabin

Talantli kishilar turlicha iqtidorga ega bo‘ladilar. Agar siz o‘z qobiliyatingizga odamlar sizni tushunadigan va baholay oladigan bir tarzda yo‘l ochmoqchi bo‘lsangiz, bu kitob sizga yordam beradi. Ushbu kitob ssenariy yozishni, film olishni va unda bosh qahramon bo‘lishni istagan odamga atalgandir. Hozircha, siz bu narsalar bilan qachon shug‘ullanish haqida o‘ylab turgan bir paytda, bu kitob filmlardan katta zavq olish imkonini beradi. Agar shaxmat o‘yining qoidasini bilsangiz, savodsiz odam singari kim yutishini kutib turmaysiz, balki o‘yin paytida zavq-shavqqa to‘lasiz, shunday emasmi? Kino - shaxmatdan ko‘ra shiddatliroq o‘yin. Uning tomoshabinlari - bizning sheriklarimiz, har qanday filmning yutug‘i uni biz siz bilan birgalikda qanchalik yaxshi o‘ynaganligimizga bog‘liq bo‘ladi. O‘yin qoidasini o‘rganing va undan zavq oling. Bu o‘yin har doim bir necha bosqichli bo‘ladi. Albatta birinchi bosqich, hali tomoshabin yuzada yurgan payt, eng sodda bosqichdir. Birinchi bosqichdagi tomoshabin «Gamlet»dan: - Ana senga kino - birato‘la oltita murda-ya! - degan so‘zlar bilan chiqqanini eshitganman. Nima ham derding? Marhumlar aslida bundanda ko‘proq. Bunday tomoshabin filmga yuzaki baho berib, uning zohirinigina tuyib, o‘chmas ruhiy dunyosini ilg‘amasligi mumkin.

Ertalabdan kechgacha TVning ko‘plab kanallaridan birvarakay kinolar oqimi o‘tib turadi. Drama - g‘oyalar olamidir. Har bir ssenariyda o‘nlab g‘oyalar olg‘a suriladi. Har bir filmning asosiga yuzlab g‘oyalar qo‘yilgan. Ammo har qanday ishda uning poydevorida yotuvchi uncha ko‘p bo‘lmagan asosiy g‘oyalar mavjud. Bu narsa dramaga ham, uning bir kinematografiyaga ham tegishlidir. Bir safar taniqli fransuz essechisi Pol Valeri Albert Eynshteyndan: Aytinch, siz o‘z g‘oyalaringizni qanday yozib borasiz? Yondnllarchangiz bormi yoki miyangizga kelgan yorqin fikrlarni

knylagingizning ohorlangan yengiga qayd qilasizmi?» - deb so‘radi. - «(i‘oyalar, bilsangiz, kamdan-kam keladi. Men ularning hammasini oslab qolaman», - deb javob beribdi Eynshteyn. Essechi Pol Valeri uchun bir-biridan ayri bo‘lgan ikki voqea o‘rtasidagi g‘ayritabiiy bog‘lanishlar - g‘oya. Eynshteyn uchun g‘oya - bu olamni harakatga keltiruvchi tamoyillarni asosli tushuntirib beruvchi qandaydir narsa. San’atimizning asosiy g‘oyalari uni yuksak san’at va tuban ko‘ngilxushliklarga ajratmaydi. Ommaviy ko‘ngilxushliklar sanoati g‘oyalari kinomagnatlarning kabinetlarida tug‘ilgan emas. Ular Stanislavskiy, Eyzenshteyn, Chexov, ulardan ancha oldin Shekspir, Aristotel va shu kabi buyuk daholar tomonidan vujudga keltirilgan. Bu g‘oyalar uncha ko‘p ham emas. Ko‘ngilxushliklar sanoati dramaning asosiy g‘oyalariidan foyda lanadi va ulami muvaffaqiyatli rivojlantiradi, xalos. Drama tadqiqotchilaridan biri aytganidek: «Foyda olish uchun

qillnadigan dramalar ma’lum bir retsept bo‘yicha qilinganligidan, yaxshi dramalar qandaydir boshqa retsept asosida yaratilishi kelib chiqmaydi». Inglizchasiga ehtiyot bo‘lib aytilgan fikr.

Ammo qo'polroq qilib: «Shekspir va teleseriallar barcha dramatik konstruksiyaning poydevorida yotuvchi bir xil asosiy qoidalar bo'yicha amal qiladilar», - deyish ham mumkin. Devor oldida bir yarim soat o'tirib ko'ring va unga tikilgan o'zingiz uchun muhim bo'lgan qandaydir bir narsaga fikringizni jamlab ko'ring. Bundan hech narsa chiqmaydi, juda tezlik bilan fikringiz chalg'iy boshlaydi, zerikasiz va majburlash hissini tuyasiz. Siz uchun qiziq bo'lmagan filmlarda ham aynan shu narsa sodir bo'ladi. Shunchaki, o'z-o'zicha, uzoq muddat diqqatni bir narsaga jalb qilish inson uchun xos bo'lmagan holat. Ammo film yaratuvchilari uchun aynan shu narsa kerak. Auditoriya filmga g'arq bo'lishi lozim. Havaskor to'laligicha o'zini ko'z-ko'z qilish bilan band bo'ladi. Professional san'atkor esa qanday qilib tomoshabinning diqqatini jalb qilish haqida o'ylaydi. Agar biz auditoriyani o'zim iz uchun zarur yo'nalishdan olib borishni istasak, tinmay u haqida o'ylashimiz kerak. Auditoriya bir yarim soat qorong'i zalda o'tiradi, agar unga g'amxo'rlik qilinmasa, har qanday tomoshabinning diqqati so'na boshlaydi. Siz tomoshabindan ayrilasiz. Film shunday bir narsa berishi kerakki, u tomoshabinning qiziqishini tobora orttirib borsin, finalga borganda cho'qqiga chiqsin. Shunda tomoshabin xursand bo'ladi. Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan voqiyalik auditoriyani junbushga keltiruvchi energiyaga ega bo'lishi lozim. Yaxshi hikoya qilingan voqeada energiya oshib boradi va tomoshabinlar larzaga keladi. Agar omad kelib qolsa, kulminatsiyada ular hamma narsani unutadilar. Maksimal ichki energiya holatida tomoshabinlar san'at tomonidan in'om etilgan baxt cho'qqisiga - katarsisga erishadilar. Ammo biz omadning kelishiga, intuitsiyaga umid qila olmaymiz. Bizga jalb qiluvchi energiyaning hisob-kitobi va tizilmasi zarur. Yaxshi hikoya qilingan film - eng avvalo, energiya, millionlarni hayajonlanishga, yig'lashga va kulishga majbur qila oladigan quloq eshitmagan darajadagi energiya ishlab chiqaruvchi va uni zalga nurlantiruvchi mashina hamdir. Professional hikoya qilish tizilmasining anchagina darajasi - u bo'yicha energiya o'sib boradigan rejadir. Siz bu bilimlardan har qanday erkinlik darajasida foydalanishingiz mumkin. Ammo savodsiz boisangiz, ko'ngilxushliklar industriyasi, xuddi hozir jahon prokatida Rossiya film lari bilan bo'layotgani singari (keng jahon ekranlarida filmlarimiz amalda mavjud emas), omad sizdan xayrixoh nafrat bilan yuz o'giradi. Aytish joizki, bunday savodxonlik Rossiya san'atiga, ommaviy san'atiga emas, balki eng sara elitar san'atiga xos edi. Tolstoy va Dostoyevskiy romanlari vositasida butun olam kitob o'qishni o'rgandi. Chexovning Stanislavskiy tomonidan qo'yilgan dastlabki spektakllariga moskvalik yoshlar ming kishilik navbatlarda haftalab turganlar. M XATning Amerikaga borishi nafaqat tomoshabinlar va professionallarni hayratga soldi, ayni shu paytda Amerika shu biznesining bugungi kunda dunyodagi hukmronligini ta'minlovchi narsaga ham asos soldi. Amerikaliklar buni yashirmaydilar. Hammaga muhim bo'lgan bu omillarni, nima uchundir, yuksak san'at sehri sifatida lalqin qilish qabul qilingan. Ammo bunday emasku! Tolstoy, Chexov va Stnnislavskiylar bozordagi san'atkorlar edilar. Ular o'z ijodini auditoriya ustidan hukmronliksiz tasavvur eta olmasdilar. Bu jahon madaniyati namunasidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) electron kutubxonasi
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://uz.atomiyme.com/> electron platformasi